

**TA`LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O`RNI****Muxtorqulova Rushona Zohidjon qizi***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi**“Jamiyat hayoti tanasi iqtisodiyot bo`lsa, uning joni va ruhi ma`naviyatdir”***Sh.Mirziyoyev**

**Annotatsiya:** *Maqolada ta`lim tizimida jamiyatimizdagi kadrlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, o`qitishda innovatsion uslublarning tutgan o`rni va Hemis ta`lim tizimi, ta`limni texnologiyalashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlar ilmiy jihatdan yoritib berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *innovatsiya, pedagogic texnologiya, o`qitish metodi va vositalari, innovatsiya jarayoni, Hemis ta`lim tizimi.*

**Innovatsiya** (ing. innovationas-kiritilgan yangilik, ixtiro)

**1)** texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni, ta`minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag`lar;

**2)** ilmiy-texnika yutuqlari va ilg`or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalarda va faoliyati doiralarida qo`llanilishi.

Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi yo`nalish-innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-6097-sonli farmoni va 2021-yil 1-apreldagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo`yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi PF-6198-son-farmonlarida belgilangan bandlarni amalga oshirish maqsadida, bugungi kun o`qituvchisi o`z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo`llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarni yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishi lozim. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda o`quv shakli dars mashg`ulotlarining tuzilish tarkibiga ham o`z ta`sirini ko`rsatmoqda. Bundan anglash mumkinki, ta`limda ish boruvchi pedagoglarimiz ham o`z ish faoliyatlarini bu innovatsiyalar bilan hamohang holda shakllantirishmoqda. O`quv muassalari har xil texnikaviy o`qitish vositalari bilan zamon talablari asosida jihozlanmoqda. Ular uchun xilma-xil ekranli tovushli apparatlar, diagrafoproektorlar, videomagintofonlar, television qurilmalar, elektron hisoblash mashinalari, bilimlarni nazorat qilish uchun dasturlashtirilgan qurilmalar, trenajyorlar, kompyuterlar, media apparaturalar va boshqalar ishlab chiqarilmoqda.

Bundan tashqari ta'lim beruvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni, ular dars paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishini, muayyan maqsad, mo'ljallangan, maxsus sohalar va metodlarga mos holda tanlashni bilishi, innovatsiyadan boxabar bo'lishi zarur. O'qitishning texnik vositalari vazifalari ta'limda ko'rgazmalilik, ma'lumotlarning mustaqil manbai, ta'limni individuallashtirish vositasidir.

Endilikda ta'lim oluvchi pedagogik muammolarni hal etish uchun mahalliy kutubxona va oddiy axborot vositalaridagi materiallardan foydalanishni o'rniga ularga internet tizimi orqali yechim izlashga dunyoning boshqa joylaridagi materiallardan foydalanishga yoxud o'zgacha pedagogik uslubdagi fikrlashni o'rgatamiz. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan "Innovatsion rivojlanish yo'lidan o'tmoqdamiz", bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"<sup>87</sup>.

Ta'limni texnologiyalashtirish maqsadida hozirgi ayrim tanqidchilar tomonidan o'quvchilar zamonaviy ilmiy bilimning dinamik tavsifini aks ettirmaydigan tayyor va o'zgarmas shaklda oladigan ta'lim mazmuniga qarshi chiqmoqdalar. Va shuning ortidan bugungi davr internet saytlari va electron vositalari keng ko'lamda ta'lim tizimiga kirib kelmoqda va ishlatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib, tarbiyalash, ularga ta'lim - tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>88</sup>gi Qarorlari asosida jamiyatimizda o'sib bosayotgan pedagogik kadrlarni zamonaviy interfaol ta'lim uslubida o'qitish hamda axborot-kommunikatsion vositalarini ommalashtirish va ilg'or pedagogik innovatsion vositalarni egallash uchun sharoitlar yaratishga oid vazifalar belgilab berilgan.

Mamlakatimizda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Hemis – ta'limni boshqarish axborot tizimi amalda joriy etilgani ta'limni yana bir pog'ona yuksalganidan dalolat beradi. Hemis axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga electron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi. Tizimdan foydalanuvchi talaba sifatidagi fikrim, bu tizim, nafaqat, qog'ozbozlikni tugatish, balki shu bilan birgalikda, asosiy vaqtimizni mustaqil ta'lim, bilim olish va ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishimizga imkon yaratmoqda.

<sup>87</sup> Sh. Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" 1-jild .NMIU, 2017-592-bet

<sup>88</sup> Anorqulova.G.M "Ta'lim texnologiyalari" –Toshkent:"Innovatsiya-Ziyo" 2021-3-bet

o`qitish tizimida innovatsiyaning kirib kelishini ta`lim mazmunida, o`qitish metodlarida, dars shakli, o`qitish turlari va vositalarida ko`rishimiz mumkin. -

Ta`lim mazmuniga innovatsiya an`anaviy, noan`anaviy va masofaviy o`qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi. -O`qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko`ramiz. Aktiv metodni qo`llash talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o`qituvch bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi. -O`qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishi dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz. -Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda vertual dars shakllari misolida ko`rishimiz mumkin.-O`qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta`lim, everistik ta`lim , darajalangan ta`lim, integratsiyalangan ta`lim , interfaol ta`lim, informal ta`lim, rasmiy ta`lim, norasmiy ta`lim turlari bilan izohlanadi.

Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi usulda ko`rishimiz mumkin. a) Standart dars – dars ichidagi struktura o`zgarmaydi. b) Vertual dars ya`ni masofadan o`qitish. Pedagogik innovatsiyada “Yangi” tushunchasi markaziy o`rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg`otadi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo`lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o`rganish oliy o`quv yurti o`quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovatsion jarayonlarda ta`lim tizimidagi pedagogik texnologik muammolarga yechim aniqlash uchun inovatik fikrlash, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanib yangi ma`lumotni o`zlashtirish va egallangan axborotni o`zlari tomonidan baxolashga qodir o`quvchi va talabalar kerak deb o`ylayman. Shuning uchun ham, muassasalarning o`quv – tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish usullari–interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarni o`rni hamda ahamiyati beqiyosdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni–Toshkent: 2020-yil 23-sentabr.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo`yicha beshta ustuvor yo`nalishlar yuzasidan “Harakatlar strategiyasi” to`g`risida farmoni.1-ilova.T:O`zbekiston.2017-yil

3. Mirziyoyev Sh.M “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko’taramiz“. –Toshkent:O’zbekiston.NMIU. 2017-yil 592-bet.

4. Kamoliddinov.M, Vahobjonov.B “Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari,101savolga101 javob“,Toshkent ;2007-yil.

5. Anorqulova.G.M “Ta’lim texnologiyalari“-Toshkent:“Innovatsiya– Ziyo” 2021-yil 3-bet

6. Farbermen B.L“Pedagogik texnologiyalar “. – Toshkent :”O’qituvchi”. 2000-yil.

Tavsiya etilgan internet resurslari:

7. <https://manaviyat.uz/tag/ilm>

8. <https://uz.wikipedia.org/wik/innovatsiya>

9. <https://Hemis.uz>

10. <https://mudarrisziyo.uz>